



**Ilmiy amaliy  
jurnal  
№ 3 (5)  
2026**

**YANGI  
O'ZBEKISTON  
IQTISODIYOTI**

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLY TA‘LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**MIRZO ULUG‘BEK NOMIDAGI  
O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI**

**YANGI O‘ZBEKISTON IQTISODIYOTI**

**Farg‘ona davlat universiteti uchun  
MAXSUS SON**

**3**

**ISBN 978-9943-5256-3-4**

**Toshkent – 2026**

**MUNDARIJA**

<b>Abduvoxidov A.A.</b> Moliyaviy bilim va ko‘nikmalarning iqtisodiy mazmuni hamda nazariy tamoyillari.	7
<b>Olimova N.X.</b> Qayta tiklanadigan energiya manbalaridan samarali foydalanishni rivojlantirish strategiyalari.	11
<b>Эргашев А.Х.</b> Исследование текущих тенденций и ограничений инвестиционной активности предприятий в стране.....	15
<b>Yulchiyev A.O.</b> Turistik destinatsiya tabiati va rivojlanish omillari: taklif va talabga asoslangan yondashuvlar.....	19
<b>Mirzayev A.T., Ne‘matova D.A.</b> Sanoatning bazaviy tarmoqlarini rivojlantirish mexanizmlarini takomillashtirish.....	23
<b>Karimov Sh.X.</b> Turizm faoliyatini boshqarish jarayoniga hududiy salohiyatning ta‘sirini baholash.....	30
<b>O‘rinboyev D.B.</b> Qurilish materiallari sanoati korxonalarida inqirozning shakllanish bosqichlari va diagnostik ko‘rsatkichlari tahlili.....	34
<b>Goziyev M.Sh., Bahodirova M.R.</b> Digital transformation of corporate governance in developing economies (case of Uzbekistan).....	44
<b>Israilova M.V.</b> Sanatoriya-kurort sohasida mulkchilik munosabatlarini transformatsiyalashning ayrim masalalari.....	48
<b>Turg‘unov M.M.</b> Milliy iqtisodiyotda oziq-ovqat sanoati rivojlanishining tarmoq xususiyatlari.....	53
<b>Raximova K.N.</b> Raqamli iqtisodiyot sharoitida axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish masalalari.....	58
<b>Mannopova M.S.</b> Agrar sohaning barqaror rivojlanishida meva-sabzavotchilik klasterlari: tuzilma, yo‘nalishlar va asosiy tamoyillar.....	63
<b>Nematova Sh.E.</b> Raqamli transformatsiya sharoitida xizmatlar sifat menejmenti va kichik biznes subyektlarining iqtisodiy barqarorligi.....	68
<b>Rasulov U.A.</b> Raqamli iqtisodiyot — yangi O‘zbekiston iqtisodiy islohotlarining tayanch omili.....	72
<b>Raximov D.Sh.</b> Sanoat ishlab chiqarishini diversifikatsiya qilish jarayonlari va qayta ishlash tarmog‘ining raqobatbardoshlikka ta‘siri.....	77
<b>Teshabayeva O.N.</b> Turkiya tajribasi asosida turizm infratuzilmasini rivojlantirish yo‘nalishlari.....	81
<b>Jumakulov Z.I., Tursunaliyeva K.</b> O‘zbekiston Respublikasi bank tizimi: holati, rivojlanish tendentsiyalari va islohotlar samarasi.....	85
<b>Jaksimova Z.R.</b> Ko‘lam samarasi turlari, ularning tavsifi va ko‘lam samarasi asosida samaradorlikni oshirishning nazariy modellari.....	88
<b>Yunusov A.R.</b> "Green economy" - the problem of teaching at universities in Central Asia using the experience of european union universities.....	92
<b>Юнусов Ш.</b> Роль цифровизации и искусственного интеллекта в углублении региональных экономических отношений в Центральной Азии.....	95
<b>Xalmatjanova G.D.</b> Klasterlarni boshqarishning samaradorligini oshirish va resurslardan optimal foydalanish.....	104
<b>Xomidov Q.Q.</b> O‘zbekistonda turistik majmualar faoliyatini boshqarishning nazariy jihatlari.....	109
<b>Jo‘rayev H.Q.</b> Oziq-ovqat sanoati korxonalarining strategik salohiyatini baholashning jarayon va tizimli yondashuvlari .....	114
<b>Xakimov D.R.</b> Oliy ta‘lim sohasida bozor munosabatlari rivojlanishining asosiy omillari.....	117
<b>To‘xtasinova D.</b> Xalqaro hamkorlikning eksport-import oqimlarini tartibga solishdagi roli.....	123
<b>Xolmatov B.A.</b> Qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishida tejamkorlik darajasini statistik baholash.....	127
<b>Jumakulov Z.I., Baxromov B.</b> O‘zbekiston davlat byudjetini shakllantirishda soliqlarning roli.....	131
<b>To‘ychiyeva B.V.</b> Oziq-ovqat sanoati korxonalarining barqarorligini ta‘minlashda strategik boshqaruvning ilmiy-nazariy asoslari.....	133
<b>Abdisamatov Sh.A.</b> Makroiqtisodiy ko‘rsatkichlar va iqtisodiy o‘shish barqarorligining asoslari hamda zamonaviy muammolari.....	141
<b>Asraqulov A.S.</b> Turistik xizmatlar bozorining rivojlanish xususiyatlari va turistik xizmat turlari diversifikatsiyalashuviga yondashuvlar.....	145
<b>Rakhimova K.N., Mrs. Oubih Warda</b> Institutional and innovative mechanisms for the development of digital tourism in Uzbekistan.....	151
<b>Muxtorov A.A., Mirzayev A.T.</b> Turizm sohasiga investitsiyalarni jalb etish jarayonlarini boshqarishning omilli tahlili.....	154
<b>Usibjonova G.U., Mannopova M.S.</b> Milliy iqtisodiyotda tadbirkorlik faoliyati va uning barqarorligini ta‘minlashning ilmiy asoslari.....	161

<b>Oltiboyeva M.A., Teshabayeva O.N.</b> O‘zbekiston turizm logistikasini rivojlantirishda raqamli innovatsiyalarning roli.....	<b>166</b>
<b>Ximmatova G.K., To‘xtasinova D.</b> Xizmatlar bozorida korxonalarining raqobat ustunligini barqarorlashtirish.....	<b>170</b>
<b>Oltiyeva M.A., Mirzayev A.T.</b> Hududlar resurs salohiyatini baholash orqali potensial turistik resurslarni turistik faoliyatga kiritish imkoniyatlarini modellashtirish.....	<b>174</b>
<b>Xasanova R., Teshabayeva O.N.</b> Qishloq xo‘jaligi tarmoqlarida diversifikatsiyaning hududiy jihatlari.....	<b>180</b>
<b>Zufarova G.A.</b> Ta‘lim bitiruvchilarining ko‘nikmalari va mehnat bozori ehtiyojlari o‘rtasidagi nomuvofiqlik muammosi.....	<b>184</b>
<b>Ergashev J.S.</b> "Yashil marketing" konsepsiyasi asosida energiya tejamkor qurilish materiallari bozorini rivojlantirish .....	<b>187</b>
<b>O‘rinov A.A.</b> Tikuv-trikotaj mahsulotlariga talabni shakllantirish va sotishni rag‘batlantirish tizimining o‘ziga xos xususiyatlari.....	<b>192</b>
<b>Uzganbayeva D.T., Mo‘ydinov A.</b> Sut va sut mahsulotlarini qayta ishlash korxonalarida innovatsion salohiyatini iqtisodiy-matematik va faoliyatni boshqaruv mexanizmlari takomillashtirish.....	<b>197</b>
<b>Саиджоновна З.Б.</b> Ўзбекистонда саноат корхоналарига инвестиция жалб қилишнинг иқтисодий самарадорлиги.....	<b>201</b>
<b>Qodirov Z.E.</b> Fermer xo‘jaliklari faoliyatini rivojlantirishning imitatsion modellar tizimi.....	<b>205</b>
<b>Ahmadaliyeva R.A., O‘rinov A.A.</b> Qishloq xo‘jaligini modernizatsiya qilishning iqtisodiy ahamiyati.....	<b>210</b>
<b>Хайдаров Х.</b> Сугурта муносабатларида сугурта тариф ставкаларини ахамияти ва муаммолари.....	<b>214</b>
<b>Махамადийев М.М.</b> Iqtisodiy tarmoqlarda innovatsion g‘oyalar bankidan foydalanishning tahliliy asoslari..	<b>217</b>
<b>Madaminov G‘.M.</b> Harbiy xizmatchilarni moddiy rag‘batlantirishda qo‘shimcha to‘lovlar tizimining iqtisodiy va institutsional asoslari.....	<b>222</b>
<b>Nazirboyev D.D.</b> Moliyaviy siyosat va ijtimoiy barqarorlik omillari.....	<b>227</b>
<b>Хасанова С.И.</b> Ишлаб чиқариш корхоналари бошқаруви назарий асослари.....	<b>232</b>
<b>Teshaboyev B.A.</b> Econometric analysis of internal and external factors affecting the management efficiency of tourism enterprises.....	<b>237</b>
<b>Mustafoyeva Z.A.</b> Fintech texnologiyalarining moliya tizimi rivojlanishidagi o‘rni va istiqbollari.....	<b>242</b>
<b>Xolmirzayev U.A., Muradova N.R.</b> Rivojlanish strategiyalarida raqobat va hamkorlik o‘rtasidagi muvozanat: nazariy yondashuv va amaliy tahlil.....	<b>245</b>
<b>Sadullayev R.P.</b> Ekologik vaziyatni barqarorlashtirishda soliq mexanizmidan samarali foydalanish metodologiyasi: xorij tajribasi.....	<b>249</b>
<b>Мурадов Б.Х., Аширов Д.Ф., Бахтиёрв Т.Д., Собиров Х.С. Қудратов М.Н.</b> Основные факторы инновационных процессов АЭС, устойчивых источников энергии и перехода к «Зелёной» экономике.....	<b>258</b>
<b>Tursunov O.B.</b> Transport-logistika tizimini rivojlantirish orqali iqtisodiy o‘shishni ta‘minlash.....	<b>269</b>
<b>Sayitbayev Sh.D.</b> Yangi O‘zbekistonda moliyaviy barqarorlik va iqtisodiy o‘shish.....	<b>274</b>
<b>Ibodulloyeva Z.S.</b> Aligning energy systems engineering education with Uzbekistan’s renewable energy transition: rethinking curriculum reform through a policy–education lens.....	<b>278</b>
<b>Salimova Z.S.</b> Investitsiyalar va aholi daromadlari o‘rtasidagi mutanosiblikni ta‘minlashning konseptual asoslari.....	<b>282</b>
<b>G‘aybullayeva Z.R., Oxunjonova K.K.</b> Respublika tijorat banklari operatsiyalari va ularni rivojlantirish masalalari.....	<b>286</b>
<b>Абдуллоев А.Ж.</b> Ўзбекистонда маҳсулот сифатини бошқариш амалиётини давлат томонидан тартибга солиш йўналишлари.....	<b>289</b>
<b>Rahimova M.I.</b> O‘zbekistonda ayollar rahbarligidagi korxonalarining eksport faoliyati va hududiy rivojlanish tendensiyalari.....	<b>294</b>
<b>Rahmatullayeva D.O.</b> Bandlik tuzilmasining o‘zgarishi va iqtisodiy samaradorlikka ta‘siri.....	<b>299</b>
<b>Valikulov Sh.Z.</b> “O‘zbekneftgaz” AJ da investitsion faoliyatning iqtisodiy samaradorligini oshirish omillari va ularni tizimli tahlil qilish.....	<b>305</b>
<b>Турабекова Г.И.</b> Яшил иқтисодиёт ва инсониятнинг барқарор келажаги учун йўл.....	<b>312</b>
<b>Tajiboyev S.O.</b> Xalqaro investitsiyalar va kapital oqimlari.....	<b>316</b>
<b>Madaminov A.M.</b> Sanoat korxonalari faoliyatida zamonaviy boshqaruv mexanizmlaridan foydalanish istiqbollari (oziq-ovqat sanoati misolida).....	<b>319</b>

4. Umarov I.Yu. Oziq-ovqat sanoatida tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirish (Andijon viloyati misolida). Diss. i.f.n. AMI 149 b. A. – 2009. Полухин А.А. Организационно-экономический механизм модернизации сельского хозяйства России/ А.А. Полухин// Аграрная Россия. – 2012 - №5 с. 23-29.
5. Архипов В.М. Стратегический менеджмент. Учебное пособие. - СПб: Изд-во СПб гос. ин-та экономики и финансов, 1998. - 161 с.
6. Афанасьев В.Г. Общество: системность, познание и управление. - М.: Политиздат, 1981. - 432 с.

**UDK:330.342**

**RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA AXBOROT TEXNOLOGIYALARI VA  
KOMMUNIKATSIYALARINI RIVOJLANTIRISH MASALALARI**

**ПРОБЛЕМЫ РАЗВИТИЯ ИНФОРМАЦИОННЫХ ТЕХНОЛОГИЙ И  
КОММУНИКАЦИЙ В УСЛОВИЯХ ЦИФРОВОЙ ЭКОНОМИКИ**

**ISSUES OF DEVELOPING INFORMATION TECHNOLOGIES AND  
COMMUNICATIONS IN THE CONTEXT OF THE DIGITAL ECONOMY**

**Raximova Kizlarxon Ne’matjon qizi**

Farg‘ona davlat universiteti, Iqtisodiyot fakulteti iqtisodiyot  
Iqtisodiyot va turizm kafedrasida o‘qituvchisi, Iqtisodiyot fanlar falsafa doktori

**Annotatsiya**

Ushbu maqola hozirgi rivojlangan davlatlarda faol muomalada bo‘lgan raqamli iqtisodiyot haqida yozilgan bo‘lib, unda raqamli iqtisodiyot nima ekanligi, unday foydalanish yo‘riqnomalari va tartibi haqida yozilgan.

**Kalit so‘zlar:** raqamli iqtisodiyot, kompyuter, AKT, internet, investitsiya.

В данной статье рассматривается цифровая экономика, которая активно используется в развитых странах мира. В ней раскрывается сущность цифровой экономики, а также описываются принципы, методы и порядок ее применения.

**Ключевые слова:** цифровая экономика, компьютер, ИКТ, интернет, инвестиции.

This article discusses the digital economy, which is widely used in developed countries today. It explains the essence of the digital economy and describes the principles, methods, and procedures of its application.

**Keywords:** digital economy, computer, ICT, internet, investment.

Hozirgi davrda raqamli iqtisodiyot va u bilan bog‘liq bo‘lgan bir qancha samarador texnologiyalar, shu jumladan, elektron tijorat va elektron biznes hayotimizga shiddat bilan kirib kelmoqda. Xuddi shuning uchun ham, davlat va jamiyat taraqqiyotini yanada jadallashtirish maqsadida, respublikamiz rahbariyati bir qancha muhim qarorlarni qabul qildi. Masalan, O‘zbekiston Respublikasi prezidenti 2020 yil 25 yanvardagi 2020 yil uchun eng muhim ustivor vazifalar haqidagi Oliy Majlisga Murojaatnomasida ham mamlakatimizda raqamli iqtisodning rivojlanishi bo‘yicha quyidagilarni aytib o‘tdi: “Mamlakatimizda ilm-fanni yanada ravnaq toptirish, yoshlarimizni chuqur bilim, yuksak ma’naviyat va madaniyat egasi etib tarbiyalash, raqobatbardosh iqtisodiyotni shakllantirish borasida boshlagan ishlarimizni jadal davom ettirish va yangi, zamonaviy bosqichga ko‘tarish maqsadida men yurtimizda 2020 yilga “Ilm, ma’rifat va raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish yili”, deb nom berishni taklif etaman”.

Undan tashqari, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 19 fevraldagi PF-5349 sonli “Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalari sohasini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmonini ijro etish borasida respublikamizda raqamli iqtisodiyotni davlat boshqaruv tizimiga tatbiq qilish uchun zamonaviy axborot texnologiyalarni jadal rivojlantirish bo‘yicha sharoitlar yaratish, shuningdek, axborot xavfsizligini ta‘minlash maqsadida Vazirlar Mahkamasi 2018 yil 31 avgustda raqamli iqtisodiyotning maqsad va vazifalarini belgilab beradigan “O‘zbekiston Respublikasida raqamli iqtisodiyotni joriy qilish va yanada rivojlantirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” Qaror qabul qildi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-3832 03.07.2018 dagi “O‘zbekiston Respublikasida raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarorlarini ham shu tadbirlar jumlasiga kiritish mumkin. Ushbu qaror bo‘yicha quyidagilar O‘zbekistonda raqamli iqtisodiyotni yanada rivojlantirish bo‘yicha eng muhim vazifalar deb ko‘rsatilgan:

Investitsiya va tadbirkorlikni diversifikatsiya qilish uchun kriptoaaktivlar aylanmasi sohasidagi faoliyatni, jumladan, mayining, smart kontrakt konsalting, emissiya, ayriboshlash, saqlash, taqsimlash, boshqarish, sug‘urtalash, kraud-funding (jamoaviy moliyalashtirish), shuningdek, blokcheyn texnologiyalarni joriy etish va rivojlantirish.

➤ Blokcheyn texnologiyalarni ishlab chiqarish va ulardan foydalanish sohasida amaliy ish ko‘nikmalariga ega bo‘lgan malakali kadrlarni tayyorlash.

➤ Raqamli iqtisodiyotni yanada rivojlantirish uchun innovatsion g‘oyalar, texnologiyalar va ishlanmalarni joriy etish sohasida davlat organlari va tadbirkorlik subyektlarining yaqin hamkorligini ta‘minlash.

➤ Kriptoaaktivlar bo‘yicha faoliyat va blokcheyn texnologiyalari sohasida halqaro va horijiy tashkilotlar bilan hamkorlikni har tomonlama rivojlantirish va ishlab chiqarish sohasida faoliyat ko‘rsatadigan yuqori malakali horijlik mutaxassislarni jalb qilish.

➤ Horij tajribasini hisobga olgan holda blokcheyn texnologiyalarini joriy etish uchun huquqiy baza yaratish.

Hozirda bu istilohni butun dunyodagi siyosatchilar, iqtisodchilar, jurnalistlar, tadbirkorlar – deyarli barcha qo‘llamoqda. 2016 yilda Butunjahon banki dunyodagi raqamli iqtisodiyotning ahvoli haqida ilk marta ma‘ruza e‘lon qildi (“Raqamli dividendlar”). Nufuzli xalqaro tashkilotlar olib borgan tahlillar natijalariga ko‘ra, raqamli iqtisodiyot yalpi ichki mahsulotni kamida 30 foizga oshiradi, shuning barobarida, xufyona iqtisodiyotga barham beradi. Xalqaro amaliyotga yuzlanadigan bo‘lsak, hozirgi kunda raqamli iqtisodiyot elektron tijorat va xizmatlar sohasi bilan cheklanib qolmay, balki hayotning har bir jabhasiga, xususan, sog‘liqni saqlash, fan-ta‘lim, qurilish, energetika, qishloq va suv xo‘jaligi, transport, geologiya, kadastr, arxiv, internet-banking va boshqa sohalarga jadal kirib bormoqda va ularning har birida o‘zining yuqori samaralarini bermoqda.

Hozirgi davrda mamlakatning rivojlanishi faqat mavjud tabiiy boyliklar yoki aholi soniga bog‘liq bo‘lmay qoldi, jahon banking ma‘lumotlariga ko‘ra, kurrayi zaminimiz umumiy boyligining 66 foizi — 365 trillion AQSH dollari inson kapitaliga, ya‘ni asosan shaxsning ilm darajasiga to‘g‘ri kelmoqda. AQSHda ushbu ko‘rsatkich milliy boyligining 77 foizi — 95 trillion dollarga yetgan. Shuning uchun davlatimiz rahbari joriy yil Murojaatnomada “Eng katta boylig – bu aql-zakovat va ilm, eng katta meros — bu yaxshi tarbiya, eng katta qashshoqlik — bu bilimsizlikdir” degan fikrni alohida keltirib o‘tdi. Aql-zakovat va ilm — taraqqiyot qanotidir.

O‘zbekiston Respublikasi Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi axborot xizmati bergan ma‘lumotlarga ko‘ra, telekommunikatsiya infratuzilmasini rivojlantirish yo‘nalishida ham bir qator ishlar amalga oshirilmoqda. Internet tarmog‘iga ulanishning umumiy o‘tkazuvchanlik qobiliyati 1 200 Gbit/s.ni tashkil etib, kommutatsiya markazi orqali 750 Gbit/s tezlikda Internet tarmog‘iga chiqish imkoniyati yaratildi va tarmoqning yuklanish darajasi 76,6 foizni tashkil etmoqda. 2021 yilning 1 yanvaridan operator va provayderlarga Internet xizmatlari uchun tarif o‘tgan yilning shu davriga nisbatan 34 foizga arzonlashtirilib, 1 Mbit/s uchun 56,0 ming so‘mni tashkil etdi. Internet xizmatidan foydalanuvchilar soni 22 mln.dan ortdi, shundan mobil Internet foydalanuvchilari soni 19 mln.ni tashkil etdi. Respublika bo‘yicha 237 ta obyektida magistral telekommunikatsiya tarmoqlari kengaytirilib, telekommunikatsiya uskunalari modernizatsiya qilinib,

magistral telekommunikatsiya tarmoqlari o‘tkazuvchanlik qobiliyati viloyatlararo darajada 200 Gbit/s.ga, tumanlararo darajada esa 40 Gbit/s.ga yetkazildi. Ijobiy natijalar bor, biroq bu yetarli degani emas. Zero, raqamli iqtisodiyot aql bovar qilmas katta hajmda raqamli ma’lumotlarni to‘plashda davom etmoqda. 2022 yilda global IP trafik hajmi 150 700 Gbit/s(solishtirish uchun 2017 yil 45 000 Gbit/s) chiqishi kutilayotgani davrdan ortda qolmaslikka chaqiradi.

Yurtimizda raqamli iqtisodiyotni rivojlantirishga qanchalik e’tibor qaratilayotgan bo‘lsa, kiberxavfsizlikni ta’minlash ham shuncha dolzarblik kasb etmoqda. O‘zbekiston kiberxavfsizlik global indeksida o‘zi pozitsiyasini mustahkamlab bormoqda. 2017 yilda mamlakatimiz bu reytingda 93-o‘rinni egallagan bo‘lsa, 2018 yilda 52-o‘ringa ko‘tarildi. Kiberxavfsizlik axborot xavfsizligining bir ko‘rinishi bo‘lish bilan axborotlarni saralab olishga xizmat qiluvchi yuksak ma’naviyatdan o‘zgacharoq tushuncha. U ko‘proq texnik jarayonlarga oid bo‘lib oddiy foydalanuvchi uchun pochta, ijtimoiy tarmoqlar, to‘lov tizimlarida ishonchli va mustahkam parollarni o‘rnatish, o‘z shaxsiy kompyuteri va smarfonini viruslardan himoyalashni anglatadi. Kengroq ma’noda esa kiberxavfsizlik tarmoqlar, mobil ilovalar va qurilmalarning himoyasiga qaratilgan chora-tadbirlar majmuidir. Bu ma’lumotlar konfidensialligini saqlash, ularning butunligini himoyalash, u yoki bu sayt, ilova, dasturning to‘laqonli ishlashini anglatadi. “Kiberxavfsizlik markazi” DUK tahlillariga ko‘ra, 2019 yilda internetning milliy segmenti veb-saytlarida 268 ta kiberxavfsizlik insidenti aniqlangan. Bu raqamli olamdagi huquqbuzarliklar soni oldingi yilga qaraganda 44 foizga kamaygan deganidir. Shulardan 222 tasi kontentni ruxsatsiz yuklash, 45 tasi defeys (veb-sayt sahifasi boshqa, masalan, reklama joylashtirilgan sahifaga almashtirilishini anglatuvchi xakerlik hujumi) va bittasi yashirin mayning (kriptovalyuta platformasidagi yashirin faoliyat) ulushiga to‘g‘ri keladi. Insidentlarning 69 foizi O‘zbekistondagi xosting-provayderlarida joylashgan veb-saytlarda aniqlangan, qolgan 31 foizi xorijiy davlatlardagi xosting-provayderlaridagi saytlarga tegishli. 80 ta holatga nisbatan tekshirish ishlari olib borilib, aniqlangan zaifliklarni bartaraf etish bo‘yicha amaliy tavsiyalar berilgan, qolgan 188 ta holat veb-sayt egalari tomonidan mustaqil ravishda bartaraf etilgan. Kibermakonda xavfsizlik bilan bog‘liq muammolarning yuzaga kelishiga koddan xavfsizlik xatolari mavjud bo‘lgan kontentni boshqarish, eskirgan versiyalar bilan ishlash, kirish parollarining osonligi, xavfsiz bo‘lmagan manbalardan yuklab olingan shablonlar, viruslar bilan zararlangan kompyuterlarda veb-saytlarni boshqarish kabilar sabab bo‘ladi. Internetning milliy segmentini monitoring qilish natijasida 130 mingdan ziyod kiberxavfsizlikka tahdidlar aniqlangan. Shundan 106 508 ta holat botnet tarmoqlari ishtirokchilariga aylangan xostlarga tegishli. 13 882 ta holat spamelektron pochta yoki parolni buzishi sababli turli xizmatlar tomonidan qora ro‘yxatga olingan IP-manzillarni blokirovka qilish bilan bog‘liq. 8 457 ta holat TFTP (Trivial File Transfer Protocol – fayl uzatishning oddiy shakli) protokoli va tegishli portlardan foydalanish bilan bog‘liq bo‘lib, ular utentifikatsiya mexanizmlari yo‘qligi sababli begona kontentni yuklab olishga olib kelishi mumkin. 2 114 ta holat RDP (Remote Desktop Protocol-masofaviy ish stoli protokoli) zaif protokoli ishlatilishi bilan bog‘liq. 1042 ta holat dasturiy ta’minot va ma’lumotlar bazasini boshqarish tizimlarida autentifikatsiya mexanizmiga ega bo‘lmagani, shuningdek muddati tugagan yoki yaroqsiz imzoga ega SSL-sertifikatlar bilan bog‘liq.

Bu tahlillar kiberxavfsizlik masalasining dolzarbligini yana bir bor tasdiqlaydi, boisi dasturiy zaifliklar buzg‘unchiga axborot tizimi yoki veb-sayt, shuningdek, fayl va ma’lumotlarga masofadan kirish, fuqarolarining shaxsiy ma’lumotlari chiqib ketishiga sabab bo‘lishi mumkin. Kiberxavfsizlik choralari bu kabi holatlarning oldini oladi. 2017-2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasini “Ilm, ma’rifat va raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish yili”da amalga oshirishga oid davlat dasturiga ko‘ra, 2020–2023 yillarga mo‘ljallangan kiberxavfsizlikka doir milliy strategiya va “Kiberxavfsizlik to‘g‘risida”gi qonun loyihasi ishlab chiqildi. Kiberxavfsizlikka doir me’yorlarning huquqiy jihatdan mustahkamlanishi nihoyatda zarur va o‘z o‘rnidagi tadbirdir. Raqamli olam hali-hamon huquqiy jihatdan o‘z maqomini aniq belgilay olgani yo‘q. Bu borada yangi kun sayin tahdidlarning yangi tur va shakllari paydo bo‘lmoqda, ularni qonunchilikda aks ettirish zarur. Kiberxavfsizlikka doir milliy strategiyani ishlab chiqish milliy kibermakonda jinoyatchilikka qarshi qurashish sohasidagi faoliyatni tartibga soladi. Zero, virtual olamdagi jinoyatchilikning zarar va xavfi real olamdagidan kam emas. Shuningdek, 2020–2023 yillarga mo‘ljallangan kiberxavfsizlikka doir milliy strategiya ko‘ra

kiberxavfsizlikning yagona tizimi va muhim hisoblangan infratuzilmani kiberhujumlardan himoya qilish sohasidagi huquqiy baza shakllantirildi.

“Kiberxavfsizlik to‘g‘risida”gi qonunda esa axborot kommunikatsiya va texnologiyalari tizimini zamonaviy kibertahdidlardan himoya qilish, turli darajadagi tizimlar uchun kiberxavfsizlik bo‘yicha zamonaviy mexanizmlarni joriy etish, mazkur sohada davlat organlari, korxonalar va tashkilotlarning huquqlari va majburiyatlarini belgilash, ularning faoliyatini muvofiqlashtirish kabilar aks etishi kutilmoqda. Chindan ham bu sohadagi normativ-huquqiy hujjatlarni unifikatsiyalash zarurat sezilayotgan edi. Yurtimizda olib borilayotgan barcha islohotlar zamirida xalqimizga qulayliklar yaratish maqsadi yotibdi. Kiberxavfsizlikni ta‘minlashga alohida e‘tibor qaratilishi raqamli imkoniyatlardan ishonchli va xavfsiz tarzda foydalanishga zamin bo‘lib kelmoqda. Mamlakatimizda zamonaviy dasturlash texnologiyalarini o‘zlashtirgan kadrlarni tayyorlashga alohida e‘tibor qaratilmoqda. Jumladan, shu maqsadda “Bir million dasturchi” loyihasi amalga oshirilmoqda. Mazkur loyihaning ahamiyati raqamlashtirish iqtisodiy taraqqiyotning mezoni, jahon hamjamiyatiga integratsiyalashuv, barcha sohalarni kompleks rivojlantirishning asosiy sharti ekani bilan izohlanadi. Bugun dunyoda raqamlashuv, mobillashuv, sun‘iy intellektni joriy eta oladigan kadrlar — dasturchilarga talab yuqori. Boisi raqamli iqtisodiyotni ta‘minlovchi infrastruktura, AKT sohasiga kiritilgan katta miqdordagi investitsiya ham elektron imkoniyatlardan samarali foydalana oluvchi dasturchilarsiz o‘zini oqlamaydi. Raqamli iqtisodiyotni yo‘lga qo‘yish va uning samarali faoliyatini ta‘minlovchi bir million dasturchini tayyorlashga qaratilgan loyiha doirasidagi mashg‘ulotlar ayni kunda [uzbekcoders.uz](http://uzbekcoders.uz) o‘quv portali orqali olib borilmoqda. Videodarslar o‘zbek tilidagi subtitrlar bilan taqdim etiladi. Istagan inson ro‘yxatdan o‘tib, onlayn saboqlarda qatnashishi mumkin. Mashg‘ulotlar masofaviy tarzda bepul olib boriladi. Loyihani ishga tushirishning birinchi bosqichida aholiga loyihani tanitish va raqamli ko‘nikmalarni egallashga yordam beruvchi darslarni targ‘ib qilish maqsadida reklama kampaniyasi ish olib bordi. “Bir million dasturchi” loyihasining dastlabki bosqichida 62 mingdan ziyod o‘quvchi qamrab olinib, ularning 5 ming 400 nafariga malaka sertifikatini berildi. Loyiha ZIYONET ta‘lim portali, UZMOBILE mobil aloqa operatori va UZONLINE internet provayderlarining bepul xizmatlariga kiritildi. Raqamli texnologiyalar o‘quv markazlarida ushbu loyiha doirasida dasturlash ko‘nikmalariga o‘qitish joriy etilmoqda.

Raqamli iqtisodiyot – bu noldan boshlab yaratilishi lozim bo‘lgan qandaydir boshqacha iqtisodiyot emas. Bu yangi texnologiyalar, platformalar va biznes modellari yaratish va ularni kundalik hayotga joriy etish orqali mavjud iqtisodiyotni yangicha tizimga ko‘chirish deganidir. Belgilari sifatida, yuqori darajada avtomatlashtirilganlik, elektron hujjat almashinuvi, buxgalterlik va boshqaruv tizimlarining elektron integratsiyalashuvi, ma‘lumotlar elektron bazalari, CRM (mijozlar bilan o‘zaro munosabat tizimi) mavjudligi, korporativ tarmoqlar.

Qulayliklari esa to‘lovlar uchun xarajatlar kamayadi (masalan, bankka borish uchun yo‘lkira va boshqa resurslar tejiladi), tovarlar va xizmatlar haqida ko‘proq va tezroq ma‘lumot olinadi, raqamli dunyodagi tovar va xizmatlarning jahon bozoriga chiqish imkoniyatlari katta, fidbek (iste‘molchi fikri)ni tez olish hisobiga tovar va xizmatlar jadal takomillashtiriladi, tezroq, sifatliroq, qulayroq.

Raqamli iqtisodiyotning rivojlanish darajasi axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (AKT)ning rivojlanish darajasi bilan bevosita bog‘liq bo‘lgan xolda, odatda turli ko‘rsatkichlar bilan baholanadi. Ushbu ko‘rsatkichlar quyidagilardan iborat: raqamli iqtisodiyotning YAIMdagi ulushi, AKT sanoatiga kiritilgan investitsiyalar hajmi, internet tezligi, uning mamlakat hududini qamrab olishi va aholi foydalanishi uchun qulayligi, elektron tijoratning rivojlanish darajasi, "Elektron hukumat" tizimidagi davlat xizmatlari ulushi, AKT sohasidagi mutaxassislar bilan tashkilotlarning ta‘minlanishi va boshqalar.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, yuqoridagilarni hisobga olib, raqamli iqtisodiyotni tartibga solishning nazariy asoslari, uning iqtisodiy mohiyati hamda rivojlantirish masalalari yoritib o‘tilgan. Raqamli iqtisodiyotning rivojlanishida raqamli texnologiyalarni qo‘llash va ulardan foydalanish, ularning mavjudligi va sifati, tayyorgarlik bosqichlari va rivojlanishning turli darajasini oshirishga alohida e‘tibor berish kerak. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining (AKT) paydo bo‘lishi va tarqalishi global iqtisodiyotga shu qadar ta‘sir ko‘rsatdiki, yangi bir hodisa – raqamli iqtisodiyot paydo bo‘ldi. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari ta‘siri ostida odamlarning turmush tarzi

o‘zgara boshladi, foydalanuvchilar o‘rtasidagi aloqalar o‘zgardi – turli jug‘rofiy mintaqalar, faoliyat sohalari va boshqalardagi odamlar o‘rtasida aloqa o‘rnatish imkoniyati paydo bo‘ldi. Bu raqamli iqtisodiyotning asosi bo‘lgan axborot aloqalarining jadal o‘sishi. Raqamli texnologiyalarning ta‘siri global miqyosda ham, mahalliy darajada ham seziladi. Raqamli iqtisodiyot yangi ishlab chiqarishlarning kombinatsiyasi sifatida global iqtisodiyotning tez o‘sib borayotgan qismidir. Yangi texnologiyalar yaxshi tashkil etilgan xo‘jalik yurituvchi subyektlar faoliyatining ba‘zi jihatlariga o‘zgartiruvchi ta‘sir ko‘rsatadi, bu asosan ishlaydigan mexanizmlarni – aloqa vositalarini yoki sanoat mashinalarini raqamli yoki raqamli mexanizmlarga almashtirish, shuningdek, ularni yanada modernizatsiya qilishdan iborat. Raqamli iqtisodiyot shuni ko‘rsatadiki bir vaqtning o‘zida keng sohalarda rivojlanmoqda va cheklangan miqdordagi kompaniyalar tomonidan, ularga maxsus vakolatlar va resurslar berilgan bo‘lsa ham, odatda qurilmaydi. Shuning uchun raqamli iqtisodiyotda asosiy rolni kuchli tadbirkorlik va innovatsion yondashuvga ega bo‘lgan xususiy biznes egallashi, davlat esa xususiy tashabbus uchun infratuzilma va sharoit yaratishi bilan shug‘ullanish kerak. O‘zbekistonda raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish uchun zarur shartsharoitlarni yaratish bo‘yicha davlat o‘z rolini muvaffaqiyatli uddalamoqda, bu erishilgan natijalar va yaqin istiqbolga mo‘ljallangan ulkan maqsadlardan dalolat beradi.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yhati:**

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyevning 2020-yil 21- yanvardagi O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga va Senatiga Murojaatnomasi. <http://turkiston.uz> (murojaat sanasi: 16.03.2020)
2. Alekseyenko O.A. Сифровизация глобального мира и роль государства в цифровой экономике / О.А. Алексеенко, И.В. Илин // Информ. общество. – 2019.
3. G.F.Ismoilova. M.M.Parpiyeva. Davlat statistika qo‘mitasi huzuridagi Kadrlar malakasini oshirish va statistik tadqiqotlar institutining “O‘zbekiston statistika axborotnomasi” ilmiy elektron jurnali. 2022 yil, 2-son “O‘zbekistonda raqamli iqtisodiyot rivojlanishida raqamli texnologiyalarning ahamiyati”
4. M.M.Parpiyeva. Davlat statistika qo‘mitasi huzuridagi Kadrlar malakasini oshirish va statistik tadqiqotlar institutining “O‘zbekiston statistika axborotnomasi” ilmiy elektron jurnali. 2022 yil, 3-son. “Raqamli iqtisodiyotni rivojlantirishda innovatsiyalarning roli”
5. Umarov, I. Y. (2020). Innovative activity of the food industry of Uzbekistan. *Ekonomika i sotsium*.